

“DEV” ATAMASI ETIMOLOGIYASI

Shuxratjon Boboismoilovich Abdulloyev,

Termiz davlat universiteti,

“O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik” kafedrası tayanch doktoranti

e-mail: abdulloyevshuxrat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘rta Osiyo qadimgi xalqlari e‘tiqodida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “dev” atamasi tarixiy-lingvistik materiallar asosida tahlil etilgan. “Dev” so‘zi tarixiy nuqtai nazardan qadimiyligi va nihoyatda keng hududda tarqalgani sababli turlicha talqinlarga ega. “Dev” atamasi asosan hindiyevropa tilli xalqlar mifologiyasida uchraydigan ilohiy obraz hisoblanadi. Atama odatda, “xudo”, “osmon”, “yorug‘lik”, “porlamoq”, “nur”, “ko‘rmoq”, “mehrubonlik” kabi ma‘nolarni anglatgani ta‘kidlanadi. “Dev” atamasi O‘rta Osiyo va unga tutash hududlarda “xudo” ma‘nosidan “iblis” ma‘nosiga o‘zgargan obraz ekanligi bilan ham e‘tiborga loyiq. Maqolada “dev” haqidagi an‘anaviy qarashlardan farqlanadigan g‘oyalar ilgari suriladi. Dev obrazining shakllanishi va evolyutsiyasining O‘rta Osiyo qadimgi xalqlari hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liqligiga urg‘u berilgan. Ushbu atamaning tadqiq etilishi O‘rta Osiyo xalqlarining diniy qarashlari tarixini o‘rganishda yangi xulosalarni taqdim etadi. Dev obrazini o‘rganish orqali O‘rta Osiyo xalqlari e‘tiqodida ibtidoiy tabiat kultlariga sig‘inishdan ko‘pfunksiyali xudolar obrazining shakllanishini ko‘rish mumkin. Devlarning salbiy obrazga aylanishi Zaratushtra islohoti va uning izdoshlarining faoliyati bilan bog‘liq. Shunga qaramay, O‘rta Osiyo xalqlarining e‘tiqodiy qarashlari va folklorida “dev” atamasi bilan bog‘liq ijobiy belgilar oz bo‘lsada saqlanib qolgan. Tadqiqotda dev obrazi zardushtiylik tarqalishidan avvalgi davrda O‘rta Osiyo xalqlari shakllangan xudolar bo‘lgani isbotlangan.

Kalit so‘zlar: dev, dayeva, dayva, Avesta, ariysi, indoyevropeysi, indoiransi, zoroastrizm, bog, dyavol.

ЭТИМОЛОГИЯ ТЕРМИНА "ДЭВ"

Шухратжон Бобоисмоилович Абдуллоев

Базовый докторант кафедры

«Истории Узбекистана и источниковедения» Термезского

государственный университета

e-mail: abdulloyevshuxrat@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических и лингвистических материалов анализируется термин «дэв», имеющий важное значение в верованиях древних народов Средней Азии. Слово «дэв» имеет разные толкования из-за своей исторической древности и широкого распространения. Термин «дев» - это божественный образ, встречающийся в основном в мифологии индоевропейских народов. Этот термин обычно используется для обозначения «бог», «небо», «свет», «сияние», «свет», «видение» или «добродетель». Термин «дев» также примечателен в Средней Азии и ее окрестностях как образ, который изменился с «бога» на «дьявола». В статье выдвигаются идеи, отличные от традиционных представлений о «девах». Подчеркивается, что формирование и эволюция образа девы связаны с социально-политическими процессами в жизни древних народов Средней Азии. Изучение этого термина позволяет сделать новые выводы при изучении истории религиозных воззрений народов Средней Азии. Изучая образ дев, можно увидеть формирование образа многофункциональных богов в верованиях народов Средней Азии от поклонения примитивным культам природы. Негативный образ девок связан с реформой Заратустры и деятельностью его последователей. Тем не менее положительные взгляды, связанные с термином «дев» в религиозных воззрениях и фольклоре народов Средней Азии, сохранились, хотя и в меньшей степени. Исследование доказало, что образ дев был богом, сформированным народами Средней Азии в период до распространения зороастризма.

Ключевые слова: *дев, даева, дайва, Авеста, арийцы, индоевропейцы, индоиранцы, зороастризм, бог, дьявол.*

ETHYMOLOGY OF THE TERM "DEV"

Shukhratjon Boboismoilovich Abdulloev

Basic doctoral student of the department

"History of Uzbekistan and source study" Termez State University

e-mail: abdulloyevshuxrat@gmail.com

ABSTRACT

On the basis of historical and linguistic materials, the article analyzes the term "dev", which is of great importance in the beliefs of the ancient peoples of Central Asia. The word "dev" has different interpretations due to its historical antiquity and wide distribution. The term "dev" is a divine image found mainly in the mythology of Indo-European peoples. This term is commonly used to mean god, sky, light,

radiance, light, vision, or kindness. The term "dev" is also notable in Central Asia and its environs as an image that changed from "god" to "devil". The article puts forward ideas that are different from the traditional ideas about "virgins". It is emphasized that the formation and evolution of the image of the virgin is associated with socio-political processes in the life of the ancient peoples of Central Asia. Studying the image of the virgins, one can see the formation of the image of multifunctional gods in the beliefs of the peoples of Central Asia from the worship of primitive cults of nature. The negative image of the Devas is associated with the reform of Zarathustra and the activities of his followers. Nevertheless, the positive views associated with the term "virgins" in the religious beliefs and folklore of the peoples of Central Asia have survived, although to a lesser extent. The study proved that the image of the virgins was a god formed by the peoples of Central Asia in the period before the spread of Zoroastrianism.

Key words: *virgins, daeva, daiva, Avesta, Aryans, Indo-Europeans, Indo-Iranians, Zoroastrianism, god, devil.*

KIRISH

So'nggi ikki asr davomida hindieron xalqlari mifologiyasi va dinlari tarixi bo'yicha kechgan eng tortishuvli masalalardan biri dev ("daeuua", "daeva") masalasidir [12]. Dev atamasi turli xil fonetik farqlar bilan barcha hindiyevropa tillarida, shuningdek turkiy tilli aksariyat xalqlarning mifologiyasida salmoqli o'rin egallaydi [46]. Tarixiy nuqtai nazardan ushbu atamaning manbadagi ("Avesto"dagi) asl talaffuzini saqlash maqsadida daeva shaklini qo'llashni ma'qul topdik [45].

Hindieron dini va mifologiyasini o'rganishga oid yondashuvlar boshqa semantik kategoriyalarnikidan sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu xilma-xillikning bir qancha sabablari bor. Birinchisi va eng muhimi, bu xalqlarning ajdodlari bo'lgan proto-hindi-ariy xudolarining nomini qayta tiklovchi atamalarning yetishmasligi bo'lib, deyarli barcha adabiyotlarda kam sonli nomlar takrorlangan va yetarli darajada ilmiy isbotini topmagan. Ushbu maqolada daeva atamasi bilan bog'liq lingvistik ma'lumotlar qisqacha tahlil etiladi.

Tadqiqot maqsadi bugungi kunga qadar O'rta Osiyo va unga tutash hududlar aholisining mifologik qarashlarida salbiy obraz sifatida qolayotgan "dev" obrazining ilk shakllanish davridagi mohiyatini o'rganish, uning diniy obraz (kult) bo'lganligini tarixiy-lingvistik ma'lumotlar asosida isbotlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr boshlariga kelib, "Avesto"dagi dev kultining xususiyatlarini alohida o'rganishga oid tadqiqotlar paydo bo'ldi. L.I.Fraxtenberg [25], H.Gyunttert [19], Lui

H. Grey [26; 27] kabi paleolingvistlar “Avesta”dagi daeva va ahuralarga oid sifatlarni bayon etish uchun qoʻllangan soʻzlarni tahlil etib, devlar uchun qoʻllangan salbiy soʻzlar asosan eroniy tillar bilan bogʻliqligi, devlarning ilohlardan iblislariga aylanishi, aynan shu til lahjalari tarqalgan hududlarga xos degan xulosaga kelishgan. T.Nyoldekening [43] “Mazandaran devlari” toʻgʻrisidagi maqolasi devlarni alohida guruhlari mavjudligi haqidagi maʼlumotlarni taqdim etdi. E.Russo [22], A.E.Kristensen [13], U.Bianchi [9], Sh.Shakked [39, 40], P.O.Skjaervo [38], F.Svennen[42], A. de Yong [2], E.Albrile [14], M.Skrinoli [33], A.Toledo [5], A.A.Mafaxer [54] kabi tadqiqotchilar oʻz tadqiqotlarida turli xil devlarning mifik xususiyatlari, ularning boshqa obrazlar bilan aloqasi, antropomorf qiyofasi kabi masalalarni izohlashgan.

Dev mavzusiga taaluqli bir qancha dissertatsiyalar amalga oshirilgan. Jumladan, deiuos, dieus, diyaus, diuios, divyas, dius, diuo shaklidagi dev atamasi, uning etimologiyasi, sanskrit, yunon, lotin va boshqa hindievropa tillaridagi etimologiyasi va mohiyatiga oid ilk dissertatsiya G.S.Hopkins tomonidan amalga oshirilgan [18]. Salli J. Sazerlend Goldman iblis (asura/ahura)lar eʼtiqodi donishmandi Shukracharya – Ushanas Kavyaning (Uśanas Kāvya) Vedalar taʼlimotidagi oʻrni, deva (dev)larga qarshi faoliyati haqidagi maʼlumotlarni tadqiq etib, uni Kayoniylar sulolasi vakili Kay Kovus (Kavi Usana) bilan solishtirgan [41]. “Zardushtiylik manbalarida devlar” deb nomlangan K.Xanning dissertatsiyasida dev obrazining zardushtiylik manbalaridagi taʼrifi va ularning hindievropa xalqlaridagi oʻxshash obrazlari tadqiq etilgan [17]. “Avesta” Gatalarida dev kultiga bagʻishlangan A.Ahmadi dissertatsiyasida zardushtiylikning ilk bosqichida devlarga munosabat, devlarning taʼrifi, xtonik va esxatologik funksiyalari haqidagi maʼlumotlar keltirilgan. Gatalar matnlarida va zurvanizmdagi yovuzlik xudosing mohiyatiga bagʻishlangan A.Ehrajining tadqiqoti ushbu mavzuda bajarilgan oxirgi dissertatsiya hisoblanadi [1].

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan. “Avesta” va “Rigveda” hamda qadimgi hindi-evropa xalqlarining boshqa tarixiy manbalarida qayd etilgan “dev” atamasi tadqiqotning obekti hisoblanadi.

NATIJALAR

Avesta” Gatalari davri – ilk zardushtiylik shakllangan vaqtdan boshlab eroniylar diniy tafakkurida daevalarga munosabat keskin tarzda salbiy tarafga oʻzgargan. Shuning uchun ham zardushtiylik tarqalgan hudud xalqlari tillarida, shu jumladan, oʻrta forsiyda *dēw* [29], klasik fors tilida *dēv*, hozirgi forsiyda *div*, darida *dēw*,

tojikchada *dev*, parfiya tilida *dēv* (*dyw*) [10], kurd tilida *dēv* [53], abxaz tilida *dīv* nomi ostida “mal’un”, “yovuz”, “iblis”, “vahshiy” mavjudotlarni anglatgan.

Dev obrazi nafaqat eroniy tilda soʻzlovchi xalqlarda, balki Oʻrta Osiyo, Kavkaz, Gʻarbiy Sibir, Uralboʻyi hududlardagi turkiy tilda soʻzlovchi xalqlarda mifologiyasida ham salmoqli oʻrin egallagan [49]. Kavkazdagi ozarbayjon [47] va boshqirdlar [52] mifologiyasida dev obrazi koʻp tilga olinishi buning isbotidir.

Ayniqsa, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida koʻplab devlarning nomini uchratish mumkin [51]. Ahamiyatli jihati, Oʻzbekiston zaminida, dev obrazi shakllangan davrdan boshlab, oʻlka xalqlari diniy eʼtiqodi va mifologik qarashlarida dev obrazi hech qachon chiqib ketmagandir. Masalan, soʻgʻdiy tilidagi buddaviylik va moniylik matnlarida uchraydiga *dyw* [16], shu tildagi nasroniy matnlarida *dyw* [*dēw*] “shayton”, “ishonchsiz, yolgʻonchi” maʼnolarida kelishi fikrimizning dalilidir [20].

Umuman, zardushtiylik tarqalgan yoki bilvosita taʼsir koʻrsatgan hududlar aholisi uchun dev obrazi salbiy obrazga aylangan. Ularning barchasi daevalarni “yomon”, “yovuz”, “aqlsiz” [35], “iblis” [6], “nopok kuch”, “yovuz ruh”, “ayyorlik”, “bezovta”, “savdoyi”, “betayin” [34], “bahaybat odamxoʻr” [50] deb tasavvur qilishgan. Daeva tushunchasining ijobiy yoki salbiy maʼnoda qabul qilgan xalqlar va mintaqalarni quyidagi jadvalda yanada aniqroq koʻrib oʻtish mumkin.

1-jadval

Daeva tushunchasining ijobiy yoki salbiy maʼnoda qabul qilgan xalqlar va mintaqalar.

Ijobiy			Salbiy		
Til yoki lahja	atama	Maʼnosi	Til yoki lahja	atama	Maʼnosi
Ariy	daiṇa-	Xudo	qadimgi fors	daiva	Iblis
Sanskrit	devá-	Xudo	klacsik fors	dēv	Iblis
xett tilida	sius	Xudo	Zamonaviy forsiyda,	div	Yovuz mavjudot
lotincha	deus, divus (< *deiṇos)	Xudo	ozorbayjon	dīv	Yovuz mavjudot
yunoncha	Zeús	Xudo	dari	dēw	Yovuz mavjudot
lit	diēvas	Xudo	oʻzbek va tojik tillarida	dev	
qadimgi prus tilidagi	deiws, deywīs	Xudo	tat	dōṽ	ulkan, bahaybat
latish tilidagi	diēvs	Xudo	qumzoriy	daywī	iblis, mal’un,

			lahjasida		shayton
			beluj lahjasida	dēb	iblis, mal'un, shayton
			zefrei lahjasida, sedei, g'ozī, kafroni lahjalarida	dīb	Yovuz mavjudot
			Co'g'diy tilidagi buddaviylik va moniylik matnlarida	dyw	Yovuz mavjudot
			Co'g'diy tildagi nasroniy matnlarida	dyw [dēw] (ko'plik shakli dywt)	1) "shayton"; 2) ishonchsiz, yolg'onchi",
			skiflarda	*hapta- daiua-	
			xorazmiy	dyw	Dev

MUHOKAMA. Daeva (*daiya-*, ayol jinsiga nisbatan *daiyū-*) so'zi proto-hindi-yevropa tildagi "xudo, iloh" -ni ifodalovchi asosiy atama sifatida hindi-yevropa tilli xalqlar orasida keng tarqalgan. Masalan, qadimgi hind tilida erkak jinsiga nisbatan iloh – *devá-* "samoviy", ayol jinsiga nisbatan "iloha" – *devī-* "samoviy", *devyā-* "Xudoning qudrati", *dāivya-* "ilohiy, xudoga xos" (ayol jinsiga nisbatan *dāivī-*) [48], lotin tilida *deus* [31], xett tilida *sius* [23], lotincha *deus*, *divus* (< **deiūos*), yunoncha *Zeús*, lit tilida *diēvas*[15], latish tilidagi *dīevs*, qadimgi prus tilidagi *deiws*, *deywis* kabi barchasida "xudo"ni anglatadi [37].

"Xudo" tushunchasini ifodalovchi har qanday so'z e'tiqodchilari orasida ommalashgunga qadar, odatda ma'lum bir sifatni, ayniqsa ilohiy yoki g'ayoritabiiy qudratni anglatuvchi so'z hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, daevalarning mifologik xususiyatlarini tadqiq etishda, bu so'zning etimologik tahliliga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Daeva so'ziga oid fikr-mulohazalar ko'plab paleolingvistlarning tadqiqotidan o'rin olgan. Ulardan, nisbatan mashhurroqlariga to'xtalib o'tamiz.

Daeva so'zi hindi-evropa tillar oilasiga mansub so'z bo'lib, atamaning o'zagi dai(y) yoki di (*dai-*: *dī-*) "porlamoq, nur sochmoq, charaqlamoq, yaltiramoq, yonmoq, yoqmoq" kabi ariy tilidagi so'zdan kelib chiqqan deb hisoblanadi [48]. M.Mayrhofer bu so'zni (*dai-*: *dī-*) qadimgi hind tilida *day-* "chaqnamoq, porlamoq; nur taratmoq;

yaraqlamoq” bilan bog‘laydi, biroq u faqat qadimgi hind tili bilan cheklanib qolgan va so‘zning eroniy tildagi shakllarini keltirmagan [31]. Hindievropa tilidagi **dei-* : *dejə-* : *dī-* : *dīā-* “porlamoq, charaqlamoq” so‘zlarining dastlab “nur sochmoq” ma’nolarini ifodalagani va etimologik jihatdan protoeroniy tilidagi **dīā-* so‘ziga aloqador ekanligi haqidagi taklif ham mashhur hisoblanadi [31; 32; 37.]. Ko‘p hollarda **dai-* : *dī-* so‘zlarning prototipi bir xil deb qabul qilingan, so‘zning “yorqinlik, porlash” ma’nolari ba’zan so‘zlarning qo‘shilib ma’no hosil qilishida ham kuzatiladi.

Shuningdek, so‘znining *dai-* “ko‘rmoq, qaramoq” ma’nolari ham mavjud [48]. Ya’ni, *dai-* : *dī-* “ko‘rmoq, qaramoq, kuzatmoq” ma’nolari, ariylar tilidagi *dhai-* : *dhī-*, *dhīā-* dan paydo bo‘lgan. Jumladan, qadimgi hind tilidagi *dhay-* : *dhī-*, *dhīā-* “ko‘rmoq; diqqat qilmoq; qaramoq; mulohaza qilmoq, o‘ylamoq; o‘ylab topmoq” ma’nolarida ham keladi. Bu hindievropa tilidagi **dhejə-* : *dhīa-* : *dhī-* “ko‘rmoq, qaramoq” so‘zlaridan kelib chiqqan [31; 32; 37.].

“Avesta”dagi *dā(y)-* so‘zini ham aksariyat tadqiqotchilar “ko‘rish, qarash, tekshirish” ma’nolarida izohlaydi [7; 23.] va uni qadimgi forsiy tilidagi *di-* “ko‘rmoq” so‘zi bilan bog‘lashadi [11; 24.].

Avestadagi ushbu so‘zga shakli va mohiyatiga ko‘ra yaqin so‘zlardan yana biri *dava* (Avesta Gatalarida *dāva-*) “oqilona, mulohazali; aqlli” deb tarjima qilinadi [7]. Bu so‘z “Avesta” matnlarida alohida, bir-biridan mustaqil **-ā-* — **dāi-* shaklida “himoya qilish, asrash, g‘amxo‘rlik qilish, homiylik qilish” ma’nolarini ifodalaydi va quyidagi mazmunlarda qo‘llaniladi: 1) Unlilarni cho‘zib talaffuz etilishi bilan “nazorat qilish, kuzatish” ma’nolarini anglatadi; 2) alohida ildizda **dā(i)-* yoki 3) so‘zlarning kontaminasion (o‘xshash ikki so‘z yoki ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi so‘z yoki iboraning paydo bo‘lishi) ta’siri natijasida **dai-* “qaramoq, kuzatmoq, boqmoq” (unli tovushlarning ko‘tarib talaffuz etilishi bilan) mazmunida tushuniladi [48].

Avesta Gatalarining keyingi qismlarida *dā(y)-* “asramoq, himoya qilmoq; kimgadir g‘amxo‘rlik qilmoq, mulozamat ko‘rsatmoq (ayniqsa yirik shoxli chorvaga)” ma’nosida ham qo‘llanilgan. Bu fe’lning birlamchi asosiy shaklida 1. *dā-*, 2. *dāya-* shaklidagi ma’nosi qadimgi hind tilidagi *dhinóti* “boqish, oziqlantirish” so‘ziga to‘g‘ri keladi [7]. Ehtimol, bu vedalarda daevalarning taqdiri, rizq-nasibani belgilovchi qudrati bilan izohlanar. Qadimgi hind tilida shunga o‘xshash *daiah* (*dāyah-*) “asrovchi, avaylovchi, g‘amxo‘rlik qiluvchi”, yoki *dhayas* (*dhāyas-*) so‘zi “g‘amxo‘rlik, mehrubonlik ko‘rsatuvchi” (shuningdek, “huzur baxshlovchi, to‘yingan,

farovon, yupanchiq, tasalli”), “kingadir g’amxo‘rlik qilish, kimnidir o‘z vasiyligiga olish” [31], ma’nolarida ham qo‘llanilishi e’tiborga loyiq.

Y.Pokorniy tomonidan hindigerman tilidagi *deu* yoki *dou* (*deu-* yoki *dou-*: *du-*) so‘zi “ibodat qilish”, “sig‘inish”, “topinish”, “yoqimli”, “qudratli” ma’nolarida tajima qilingan [37]. Aftidan bu so‘zning ildizi ham daeva so‘ziga aloqadordir. Bu so‘z bilan o‘zakdosh bo‘lishi mumkin bo‘lgan qadimgi hind tilidagi *dúvas* – “qurbonlik qilish, ibodat qilish bo‘yicha ko‘rsatma”, *duvasyáti* – “e‘zozlaydi, qadrlaydi, taqdirlaydi”, *duvasyú-*, *duvōyú* – “aziz, izzatli”; so‘zlarining mazmuni shunga ishora qiladi. Zero, Zaratushtra tomonidan daevalarning rad etilishiga sabablaridan biri ularga bag‘ishlab qilingan shafqatsiz qurbonlik marosimlaridir.

Daeva so‘zining etimologiyasiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligi taxmin qilingan so‘zlardan yana biri, ariy tilidagi *dhau* (*dhau-*) – “urish, urmoq” so‘zidan kelib chiqqan *dau* yoki *deu* (*dau-*: *dāu-*) so‘zi bo‘lib, “bosmoq”, “bostirmoq”, “itarmoq” “bo‘g‘ish” ma’nolarini anglatadi. Ba’zi tadqiqotchilar, qadimgi xorazm tilidagi *‘rd’wn*, *‘rd’wn* – “iblislar, qonxo‘rlar” so‘zlarini ham ushbu so‘z bilan aloqador deb hisoblashadi, agar u **-ina-* ko‘plik shaklida bo‘lsa, **fra-dau-* shaklida o‘qiladi [21; 29.]. Xorazmiy tilida *‘rd’w* / *‘rd’w* [**arδāw*] “dev, iblis” (ko‘plik shaklida **arδāwin^a*) **ar-δāw* atamaları ham ushbu so‘zga bog‘liq bo‘lib, *ahra dāwa-* “yovuz xudo” birikmasida ifodalangan.

Dayva (*deiwós*) so‘zi proto-hindi-evropa tildagi “xudo” ni ifodalovchi asosiy atama sifatida **dyeu-* “osmon, kun” <**dei-* “porlamoq, nur sochmoq”, “yog‘du taratmoq”, “Ilohiy nurli kun” so‘zidan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi taxmin ham mashhurdir [37]. Atama hindi-evropa tilli xalqlar orasida keng tarqalgan, masalan, qadimgi hind tilida *dīa*, lotin tilida *deus*, litov tilida *diēvas*, xett tilida *sius*, sanskritchada *devá-*, kabi barchasida “xudo”ni anglatadi [30].

Ushbu shaklning yanada yaqqol namunalariga misol, lotin tilidagi *Jūpiter*, illiriylar tilidagi *Dei-pátrous*, yunon tilidagi *Zeús patēr*, sanskritdagi *Dyáuṣ pitā*, shuningdek, Pal *tiyaz* . . . *pāpaz* kabi “ota” uchun boshqa so‘zlardan foydalangan holda o‘zgartirilgan moslashuvlardir. **Diwyós* “ilohiy” yasama sifatini lotin tilidagi *dīus*, yunon tilidagi *diós* va sanskrit tilidagi *divyá-* tasdiqlaydi.

Bu atamaning ilohiy nom ekanligi va yorug‘lik bog‘liqligini hindi-evropa xalqlarining ilohalari nomlari misolida ham ko‘rib o‘tish mumkin, masalan **dhuġhatēr diwós* “samoviy qiz”, uning ismi litva (litov) tilida *diēvo duktė* “Saulyte (quyosh)”, “Samo qizi” sifatida saqlanib qolgan, Yunon tilidagi *thugátēr Diós*, sanskrit tilidagi *duhitā diváh*. Ushbu epitets, ayniqsa Boltiqbo‘yi, yunon va hind qadimiy e’tiqodida “tong ma’budasi” **haéūsōs* -ga nisbatan qo‘llanilgan.

Qadimgi hindi-yevropa xudolari serqirraligi, daeva soʻzining koʻp maʼnoli ekanligi bilan izohlash mumkin.

XULOSA

Yuqoridagilardan, daeva atamasi etimologiyasi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

daeva atamasi deyarli barcha hindi-yevropa xalqlari, shuningdek ular bilan yonma-yon yashab kelayotgan va doimiy madaniy aloqada boʻlgan xalqlar uchun mifologik obraz hisoblangan;

etimologik jihatdan ushbu atamaga asos boʻlgan soʻzlardan biri *dā(y)*- “himoya qilish, asrash, gʻamxoʻrlik qilish, homiylik qilish” “ibodat qilish”, “sigʻinish”, “topinish”, “yoqimli”, “qudratli” soʻzidir;

shuningdek, bu soʻzning “koʻrmoq, qaramoq, kuzatmoq” “oqilona, mulohazali; aqli” maʼnolari ham mavjud;

biroq tadqiqotchilarning koʻpchiligi daeva atamasining oʻzagi etimologik jihatdan *dai(y)* yoki *di* (*dai*:- *dī*-) “porlamoq”, “nur sochmoq”, “charaqamoq”, “yaltiramoq”, “yonmoq”, “yoqmoq”; soʻziga borib taqaladi degan xulosaga kelishgan.

Ahamiyatli jihati, daeva atamasi bilan bogʻliq soʻzlardan birortasi ham salbiy mazmunni ifodalamaydi, aksincha, bu soʻz ilohiy sifatlarni oʻzida mujassam etgan.

Biroq, daeva atamasi har doim ham barcha xalqlar uchun xudoni anglatgan deb boʻlmaydi. Hind-yevropa tilda soʻzlovchi xalqlardan slavyanlarda boʻlgani kabi, Avestada ham *daēva*- soʻzi “iblis”ni anglatadi.

Atamaning oʻzagini tashkil qiluvchi soʻz (* *d[e]iǵ-*) barcha hindi-yevropa tillaridagi soʻzlarda, shu jumladan, ilohiy ismlarda ham yorugʻ osmonni anglatgani holda, eroniy tillarda yovuz ruhni anglatishi ajablanarli holat [4]. Ammo, bu daeva soʻzining etimologiyasi yoki lugʻaviy maʼnosi bilan bogʻliq boʻlmay, balkim tarixiy jarayonlar natijasida daeva obrazining diniy tafakkurdagi oʻzgarishi oqibatidir.

Иқтибослар/ Сноски/References:

1. Abbas Echrighi. Le Mal dans les Gāṇā et dans le Zurvanisme. Docteur de l'Université de Reims Champagne-Ardenne. Discipline: philosophie, epistemologie. 2020. 242 p.
2. Albert de Jong Traditions of the magi Zoroastrianism in Greek and Latin Literature (Religions in the Graeco-Roman world ed. R. van Den Broek. Vol. 133.) Leiden-New York-Köln. Brill: 1997. 496-p.; Albert de Jong. Iran // Guide to the

- Study of Ancient Magic. Ed. by David Frankfurter. Leiden; Boston: Brill, 2019. pp. 65-86.
3. Albert de Jong. Going, going, gone! The fate of the demons in late Sasanian and early Islamic Zoroastrianism // *Démons iraniens. Actes du colloque international organisé à l'Université de Liège les 5 et 6 février 2009 à l'occasion des 65 ans de Jean Kellens. édités par Philippe Swennen. Presses Universitaires de Liège. 2015. pp. 163-170.*
 4. Amir Ahmadi. The Daēva Cult in the Gāthās: An Ideological Archaeology of Zoroastrianism. Routledge. London and New York. 2015. p.1.
 5. Andrés-Toledo, M. Á. "Arch-demons of the Zoroastrian Pandemonium". In: A. Falero & D. Doncel Abad (eds.). *Eurasia. Avances de investigación. Salamanca, Universidad de Salamanca. 2021. pp. 85–93*
 6. Bailey H.W. Dictionary of Khotan Saka. Cambridge-London-New York-Melbourne, 1979
 7. Bartholomae Chr. *Altiranisches Wörterbuch*. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-New York, 1979). pp. 724-725.;
 8. *Beiräge zur Zentralasienforschung* 12. Halle/Saale: International Institute for Tibetan and Buddhist Studies, 2008.
 9. Bianchi Ugo. L'inscription «des daivas» et le zoroastrisme des Achéménides // *Revue de l'histoire des religions*. 1977. № (192) 1 . pp. 3-30.
 10. Boyce M. A Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977. p. 39.
 11. Brandenstein W., Mayrhofer M. *Handbuch des Altpersischen*. Wiesbaden, 1964.p.116.
 12. Campos M.I. Ahuras, Dāeuuas y Bagas: una revisión de la terminología religiosa del panteón iranio antiguo// *Bandue: revista de la Sociedad Española de Ciencias de las Religiones*, nº. 1, 2007, pp. 35-46.
 13. Christensen Arthur – *Essai sur la démonologie Iranienne* // *Det Kgl. danske videnskabernes selskab. Historiskfilologiske meddelelser*. XXVII, 1 (Vol 27) København. E. Munksgaard, 1941. 97 p.
 14. Ezio Albrile. Daēvica enteogena. L'identita psicoattiva dell'antica religiosita iranica // *Rivista degli studi orientali*. Vol. 82, Fasc. 1/4, Sapienza - Università di Roma. 2009. pp. 263-274.
 15. Fraenkel E. *Litauisches etymologisches Wörterbuch*. Bd. I. Heidelberg-Güttingen, 1962. pp. 94-95.
 16. Gershevitch I. *A Grammar of Manichean Sogdian*. Oxf., 1954. p. 7; 211.

17. Ghan, Chris. The daevas in Zoroastrian scripture. University of Missouri-Columbia, 2014. 80 p.
18. Grace Sturtevant Hopkins. Indo-European *Deiws and related words. Philadelphia. Linguistic society of America. University of Pennsylvania. 1932. 83 p.
19. Güntert H. “Ueber die ahurischen und daēvischen Ausdrücke im Avesta, eine semasiologische Studie,” // Sitzungsberichte der Heidelberger Akademie der Wissenschaften, philosophisch-historische Klasse, 1914, Abhandlung 13.
20. Henning W.B. Ein manichiisches Bet- und Beichtbuch. — APAW. 1936, № 10. s.83; 88.
21. Henning W.B. Mitteliranisch. – HbO. Abt. 1, Bd 4. Abschnitt 1. Lieden-Köln, 1958. 117-118;
22. Hervé Rousseau. Le Dieu du Mal. Paris. Presses Universitaires de France. 1963. 130 p.
23. Kellens J. Le verbe avestique. Wiesbaden, 1984. p. 184.
24. Kent R. Old Persian (Grammar, Texts, Lexicon). New Haven, 1950 (2nd ed., 1953). P 191;
25. Leo J. Frachtenberg. Etymological Studies in Ormazdian and Ahrimanian Words in Avestan // Spiegel Memorial Volume, Bombay, 1908, pp. 269-89.
26. Louis H. Gray. A List of the Divine and Demonic Epithets in the Avesta // Source: Journal of the American Oriental Society, Vol. 46. 1926. pp. 97-153.
27. Louis H. Gray. The “Ahurian” and “Daevian” Vocabularies in the Avesta // Journal of the Royal Asiatic Society. Vol. 59/03.1927. pp. 427 - 441.
28. MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. L., 1971. p. 26; Boyce M. A Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liége, 1977. p. 39.
29. MacKenzie D.N. The Khwarezmian Glossary. — BSOAS. II — 1971, vol. 34, p. 77.
30. Mallory J. P., Adams D. Q. The Oxford Introduction to Proto-Indo-European and the Proto-Indo-European World. New York.: Oxford University Press. 2006. p.408.
31. Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuch des Altindoarischen. I Band. Heidelberg 1992. s 742-743.
32. Mayrhofer M. Etymologisches Würterbuch des Altindoarischen. Heidelberg, № 9. 1986. p. 701.
33. Micol Scignoli. duruj-, drauga-, draujana-, dallo studio delle valenze semantiche attestate all'individuazione della triade iranica nella lingua antico persiana, in: Studi iranici ravennati II, Milano. MIMESIS. 2018. pp. 259-270.

34. Morgenstierne G. Etymological Vocabulary of the Shughni Group. Wiesbaden, 1974. pp. 32; 114.
35. Morgenstierne G. Indo-Iranian Frontier Languages. Vol. II . Oslo. 1938. pp. 221-222.
36. Nöldeke Th. Deva, // Zeitschrift für Indologie und Iranistik: Vol. 2. Bd. 2. 1923, p. 31.
37. Pokorny J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959. p.183-187;
38. Prods Oktor Skjærvø. “The Story of Aži Dahāka in the 9th Book of the Dēnkard and Pahlavi āyēb “Blaze, Conflagration”. In Chomolangma, Demawend und Kasbek, Festschrift für Roland Bielmeier zu seinem 65. Gebustrag, vol. 2., edited by BrigitteHuber, Marianne Volkart, and paul Widmer, 533-49.
39. Shaul Shaked. Bagdāna, King of the demons, and other terms in Babylonian aramaic magic. J.Duchesne-Guillemin and P.Lesq (eds.), Papers in Honour of Proffessor Mary Boyce // Acta Iranica 25/2: Hommages et Opera Minora, Leiden, 1985. pp. 511-525.
40. Shaul Shaked. Some Notes on Ahreman, the Evil Spirit, and His Creation // Mysticism and Religion Presented to Gershom G.Scholem on his Seventieth by Pupils, Colleagues and Friends, eds. Efrayim E.Urbach, Raphael J. Zvi Wer and Chaim Wirszubski. Jerusolim. Magnes Press. pp. 227-234.
41. Sutherland, Sally J. (Sally J. Sutherland Goldman) Śukrācārya The Demons Priest: Aspects of Character Development in Sanskrit Mythological Literature. Ph.D. dissertation. University of California, Berkeley. 1979. 415 p. 415 p.
42. Swennen Philippe, D’Indra `a Tištrya. Portrait et revolution du chevalsacré dans les mythes indo-iraniens anciens. [Coll`ege de France, Publications de l’Institut de Civilisation Indienne. Sserie in-8-. Fasc. 71]. Paris: de Boccard 2004, pp. XII, 424.
43. Theodor Nöldeke, “Der weiße dēv von Māzandarān”, ARW (Archiv für Religionswissenschaft) 18, Druck und Verlag von B. G.Teubner. Leipzig. 1915. pp. 597-600.
44. Urazova, Ra'no T.Himalayan and Central Asian Studies; New Delhi Том 21, Изд. 1, (Jan/Mar 2017): 61-IV.
45. Абдуллоев Ш.Б. “Авесто”нинг ўзбекча таржималари: муаммо ва мулоҳазалар. “Ўтмишга назар”, 2019, № 1 (16), 66-72-б. (Abdulloev Sh.B. Uzbek translations of Avesto: problems and comments. “Looking to the Past,” 2019, № 1 (16), pp. 66-72.)

46. Абдуллоев Ш.Б. Девпарастиликни ўрганишда “Ясна”нинг аҳамияти. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. №2, Хива, 2021. 141-143-б. 46. (Abdulloev Sh.B. The role of Yasna in the study of devotion. // Bulletin of Khorezm Mamun Academy. №2, Khiva, 2021. 141-143-b.)
47. Ахундов Ахлиман. Азербайджанские сказки. — Издательство Академии наук Азербайджанской ССР, 1959. С. 7. (Akhundov Akhliman. Azerbaijani fairy tales. - Publishing house of the Academy of Sciences of the Azerbaijan SSR, 1959, p. 7.)
48. Расторгуева В.С., Эдельян Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 2. — М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2007. с. 306-309. (Rastorgueva V.S., Edelyan D.I. Etymological Dictionary of Iranian Languages. Volume 2. - M.: Publishing company "Eastern Literature" RAS, 2007. p. 306-309.)
49. Снесарев Г. П., Васильев В. Н. Домусульманские верования и обряды Средней Азии : Сборник статей. — М.: «Наука», 1975. — С. 226. (Snesarev G. P., Vasiliev V. N. Pre-Muslim beliefs and rituals of Central Asia: Collection of articles. - M.: "Science", 1975. - S. 226.)
50. Стеблин-Каменский И.М. Этимологический словарь ваханского языка. СПб., 1999. с. 225-226. (Steblyn-Kamensky I.M. Etymological Dictionary of the Wakhan Language. SPb., 1999. 225-226.)
51. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Т. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти. 2002. 226-бет. (National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 3 T. State Encyclopedia of Uzbekistan State Publishing House. 2002. p.226.)
52. Хисамитдинова Ф. Г. Мифологический словарь башкирского языка. — М.: Наука, 2010. — С. 81. (Khisamitdinova FG Mythological dictionary of the Bashkir language. - M.: Nauka, 2010. -- P. 81.)
53. Цаболов Р.Л. Курдские этимологии. — Исследования по иранской филологии. Вып. первый. М., 1997. p. 304-305 (Tsabolov R.L. Kurdish etymologies. - Studies in Iranian philology. Issue first. M., 1997. 304-305)
54. آرشی اکبری مفاخر. مینشناسی اهریمن در اوستا و متون پهلوی. جستارهای ادبی مجله علمی – پژوهشی، شماره ۷۶۱، زمستان ۱۳۸۸. آرشی اکبری مفاخر. درآمدی بر اهریمن شناسی ایرانی. تفرند. ۱۳۸۹. صفحه ۳۰۴.
- (Arash Akbari Mafakher. Minaology of Ahriman Daravasta and Pahlavi text. Literary Research Scientific-Research Journal, No. 761, Winter 2009. Arash Akbari Mafakher. Introduction to Iranian demonology. Tafrand. 1389).